

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM MUASSASALARI AGENTLIGI
HUZURIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO BAHOLASH
ILMIY-AMALIY MARKAZI**

**UMUMIY O‘RTA VA MAKTABDAN TASHQARI TA’LIM
TASHKILOTLARI JISMONIY TARBIYA FANI O‘QITUVCHILARINI
ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN MALAKA SINOVIDA
FOYDALANILADIGAN TEST TOPSHIRIQLARI
SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

UMUMIY O'RTA VA MAKTABDAN TASHQARI TA'LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O'TKAZISH UCHUN JISMONIY TARBIYA FANIDAN MALAKA SINOV TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

Mazkur spetsifikatsiya jismoniy tarbiya o'quv fanidan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari o'qituvchilarini attestatsiyadan o'tkazish malaka sinovida foydalaniladigan test topshiriqlarining mazmuni, qamrovi, turi, shakli, baholash mezonini va o'tkazilish tartibiga qo'yilgan talablarni belgilaydi.

I. Umumiy tamoyillar

Baholash maqsadi – talabgorlarning jismoniy tarbiya fani bo'yicha nazariy bilimlari, amaliy ko'nikma va kompetensiyalarini kompleks baholash.

Ushbu baholash natijalari asosida pedagog kadrlar attestatsiyasida qabul qilinadigan qarorlar asosli bo'lishini ta'minlash maqsadida baholashning barcha bosqichlarida validlik, ishonchlilik, adolat va shaffoflik tamoyillariga rioya qilinishi ta'minlanadi.

II. Me'yoriy asoslar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-79-son farmoni.

2. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi "Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 572-son qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda "Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 17-sentyabrdagi 572-son qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi 692-son qarori.

III. Baholash qamrovi

Jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari uchun mutaxassislik fanidan jami 35 ta, kasb standartlaridan 5 ta hammasi bo'lib 40 ta test topshirig'i taqdim etiladi va umumiy test topshirig'ini bajarish uchun jami 90 daqiqa vaqt berilgan. Bunda yopiq test topshiriqlaridan *yagona to'g'ri javobni talab qiladigan test topshiriqlari(Y1)*, *moslashtirishni talab qiladigan test topshiriqlari(Y2)* va *ketma-ketlikni talab*

qiladigan test topshiriqlari(Y3) foydalaniladi. Test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko‘nikmalar bo‘yicha taqsimoti quyidagi jadvalda aks etgan:

Test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko‘nikmalari bo‘yicha taqsimoti

1-jadval

Mazmun soha	Baholanadigan konstruktlar	Testlar soni
JISMONIY TARBIYA		35 ta
1. Sport fiziologiyasi va Sog‘lom turmush tarzi asoslari (1–2-savollar)		
Sport fiziologiyasi va Sog‘lom turmush tarzi asoslari	– Mazmun sohaga oid asosiy tushunchalarini bilish; – organizmning jismoniy yuklamalarga moslashish jarayonini tushunish; – mushak, yurak-qon tomir va nafas olish; tizimlaridagi o‘zgarishlarni bilish, amaliyotda qo‘llay olish va tahlil qilish;	2 ta
2. Gimnastika turlari va qoidalari (3–8-savollar)		
Gimnastika turlari va qoidalari	– gimnastikaning asosiy turlarini bilish; – gimnastikaning asosiy turlarini farqlash; – mashqlarni metodik jihatdan qo‘llash; – texnika va qoidalardagi xatolarni tahlil qilish; – yangi mashqlar kombinatsiyalarini yaratish; – mashqlarning samaradorligini baholash.	6 ta
3. Harakatli o‘yinlar (9–11-savollar)		
Harakatli o‘yinlar	– harakatli o‘yinlar va ularni turlarini bilish hamda tavsiflash; – o‘yinlarning yosh va tayyorgarlik darajasiga mosligini tushunish; – o‘yinlarni dars jarayonida qo‘llash; – jismoniy sifatlarni rivojlantirishdagi o‘yinlar rolini tahlil qilish.	3 ta
4. Yengil atletika turlari va qoidalari (12–15-savollar)		
Yengil atletika turlari va qoidalari	– yengil atletika turlarini bilish va farqlash; – musobaqa qoidalarga muvofiq qo‘llash; – texnika bo‘yicha xatolarni tahlil qilish; – taktika bo‘yicha xatolarni tahlil qilish;	4 ta
5. Kurash turlari va qoidalari (16–17-savollar)		
Kurash turlari va qoidalari	– kurash turlari va qoidalari bilish; – texnika va taktik usullarni tushunish; – amaliy mashg‘ulotlarda qo‘llash; – raqib harakatlarini tahlil qilish.	2 ta

6. Suzish turlari va qoidalari (18-savol)		
Suzish turlari va qoidalari	– <i>suzish turlarini bilish va farqlash;</i> – <i>harakat texnikasini tushunish;</i> – <i>texnika va natijalarni tahlil qilish.</i>	1 ta
7. Sport o'yinlari turlari va qoidalari (19–30-savollar)		
Sport o'yinlari turlari va qoidalari	– <i>futbol o'yinlari turlari va qoidalarini bilish;</i> – <i>voleybol o'yinlari turlari va qoidalarini bilish;</i> – <i>basketbol o'yinlari turlari va qoidalarini bilish;</i> – <i>gandbol o'yinlari turlari va qoidalarini bilish;</i> – <i>shaxmat-shashka o'yinlari turlari va qoidalarini bilish;</i> – <i>sport o'yinlari turlarini bilish</i> – <i>sport o'yinlari turlarini farqlash;</i> – <i>texnik va taktik jihatlarini tushunish;</i> – <i>texnika va taktikani o'yin davomida samarali qo'llash;</i> – <i>jamo'a strategiyasini tahlil qilish;</i> – <i>yangi o'yin taktikasi yoki strategiyasini ishlab chiqish va natijalarni baholash;</i> – <i>musobaqa qoidalariga muvofiq qo'llash;</i> – <i>texnika va taktika bo'yicha xatolarni tahlil qilish;</i> – <i>hakamlarlik ko'nikmalari va adolatli baholay olish.</i>	12 ta
8. Sport inshootlari (31–35-savollar)		
Sport inshootlari	– <i>sport inshootlari turlarini bilish va farqlash;</i> – <i>foydalanish qoidalarini tushunish;</i> – <i>amaliy mashg'ulotlarda qo'llash;</i> – <i>mavjud sharoitni tahlil qilish;</i> – <i>inshootdan xavfsiz foydalana olish, texnika xavfsizligini ta'minlay olish.</i>	5 ta

**Kasb standartlaridan tuziladigan test topshiriqlarining mazmun sohasi
va baholanadigan bilim va ko'nikmalari bo'yicha taqsimoti**

2-jadval

1. KASB STANDARTI (36 – 40-savollar)		5 ta
1.1. Kasbiy standartlar	– pedagogning kasbiy standartlari (o'quv jarayonini rejalashtirish, ta'lim samaradorligini ta'minlash, o'zlashtirishni baholash va qayta aloqani taqdim etish, tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish, xavfsiz rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish va ta'minlash, o'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish, hamkasblar va ta'lim oluvchilarning ota-onalari bilan hamkorlik qilish)ni bilish va pedagogik vaziyatlarda qo'llay olish.	5

Kognitiv ko'nikmalar taqsimoti

3-jadval

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Test soni
1	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotlar, atamalar, qoidalar, tushunchalarni eslab qolish, ularning mazmuni, maqsadi va qo'llanilishini tushunish	6
2	Qo'llash	Bilim, tushuncha va protseduralarni yangi (notanish) kontekstlarda qo'llay olish	28
3	Mulohaza qilish	Faktlar, dalillar, fikrlarni taqqoslash, tahlil qilish, taxmin qilish va xulosa(lar) chiqarish	6

IV. Baholash mezonlari

Test topshiruvchining umumiy balini hisoblash uchun har bir to'g'ri javobga 1 ball, noto'g'ri javobga 0 ball beriladi. Umumiy 40 ballni tashkil etadi.

V. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

VI. Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar

1. “Sport fiziologiyasi” darslik, M.D.Pulatova, “O‘zkitobsavdonashriyoti” nashriyoti, Toshkent, 2023-yil
2. “Sog‘lom turmush tarzi asoslari” o‘quv qo‘llanma, N.A.Xudayberdiyeva, “O‘zkitobsavdonashriyoti” nashriyoti, Toshkent, 2025-yil
3. “Milliy va harakatli o‘yinlarni o‘qitish metodikasi” o‘quv qo‘llanma, Sh.S.Mirzanov, “Makon savdo print” nashriyoti, 2024-yil
4. “Sport inshootlari” darslik, B.B.Musayev, “O‘zkitob savdo nashriyoti matbaa ijodiy uyi” nashriyoti, Toshkent, 2021-yil
5. “Gimnastikani o‘qitish metodikasi” darslik, M.N.Umarov, X.X.Umarov “Evrika nashriyot – matbaa uyi” MChJ nashriyoti, Toshkent, 2025-yil
6. “Yengil atletikani o‘rgatish metodikasi” darslik, I.R.Soliyev, I.D.Ganiboyev, K.F.Ruzamuxamedov “O‘zDJTSU, Chirchiq, 2023-yil
7. “Suzishni o‘rgatish metodikasi” darslik, F.M.Muminov, I.S.Islamov, “O‘zkitobsavdonashriyoti”NMIU nashriyoti, Toshkent, 2023-yil
8. “Kurash va uni o‘qitish uslubi” o‘quv qo‘llanma, J.Axmedov , “Umid design” nashriyoti, Toshkent, 2021-yil
9. “Voleybolni oqitish metodikasi” o‘quv qo‘llanma, A.A.Pulatov, “O‘zkitobnashriyoti” NMIU, Toshkent-2023-yil
10. “Sport va harakatli o‘yinlar (Gandbol)” Sh.F.To‘laganov, M.M.Raxmanova, R.R.Kariyeva “O‘zkitobnashriyoti” NMIU, Toshkent-2020-yil
11. “Sport turlarini o‘rgatish metodikasi (Basketbol)” o‘quv qo‘llanma, M.A.Umbetova “O‘zkitobnashriyoti” NMIU, Toshkent-2023-yil
12. “Umumta’lim maktablarida futbol” o‘quv qo‘llanma, Y.Y.Aripov, N.M.Atamuxamedova, O.R.Igamberdiyev “Behzodbek print”, Toshkent-2023-yil
13. “Shaxmat” o‘quv-metodik qo‘llanma, B.A.Maxmudov, “Zebo prints” nashriyoti, Toshkent-2021-yil
14. Umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘qituvchisi kasb standarti.

Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to‘g‘ridan to‘g‘ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko‘ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.